

Neft mahsulotlarini sotish hagidagi

02/51 - sonli SHARTNOMA

Farg'ona shahri

2022 y. "14 yanvar."

Keyingi o'rnlarda "**Ta'minotchi**" deb ataluvchi "Farg'ona neft bazasi" ma'suliyatini cheklangan jamiyati nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi direktori A.A.Abduganiev bir tomondan va "**Istemolchi**" deb ataluvchi" **FARG'ONA SHAHAR OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI** Farg'ona viloyati Farg'ona shaxrida faoliyat yuritib kelayotgan korxona nomidan Nizom asosida ish yurituvchi raxbari **J.Odilov** ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar xaqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. "**Ta'minotchi**" Respublika xom ashyo birjasi savdolarida yutib olgan Buxoro neftni qayta ishslash zavodi MCHJning neft mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Neft-gaz tarmog'inining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida**"gi 2020 yil 4 apreldagi PQ – 4664-sonli qaroriga asosan o'tgan xافتада birja savdolarida shakllangan o'rtacha kotirovka narxlarida "**Iste'molchi**"ga sotadi.

1.2. "**Ta'minotchi**" Respublika xom ashyo birjasi savdolarida yutib olgan Farg'ona neftni qayta ishslash zavodi MCHJ va boshqa ishlab chiqaruvchilar, shuningdek importyordan sotib olingan neft maxsulotlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Neft-gaz tarmog'inining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida**"gi 2020 yil 4 apreldagi PQ – 4664-sonli qaroriga asosan birja savdolarida sotib olingan narx ustiga o'zining ustamasini qo'yib "**Iste'molchi**"ga sotadi.

1.3. "**Ta'minotchi**" "**Iste'molchi**"ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft maxsulotlarini yetkazib berish, "**Iste'molchi**" esa yetkazib berilgan neft maxsulotlarini qabul qilib olish va xaqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

2. NEFT MAXSULOTLARI NARXLARI VA XISOB-KITOB TARTIBI

2.1. Shartnomaning taxminiy umumiyligi summasi **99 930 293.47** so'mni tashkil qiladi.

2.2. "**Ta'minotchi**" "**Iste'molchi**"ning buyurtmasi olingan kuni sotilishi so'ralgan neft maxsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. "**Iste'molchi**" mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft maxsulotlari partiyasining tegishli xajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarini amalga oshiradi.

2.3. Sotiladigan neft maxsulotlari uchun to'lovlar "**Ta'minotchi**"ning bankdagi xisob raqamiga pul o'tkazish, plastik kartochkalar va naqd pul shaklida amalga oshiriladi.

3. NEFT MAXSULOTLARINI SOTISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft maxsulotlari "**Ta'minotchi**"ning omboridan yoki unga qarashli filiallardan "**Iste'molchi**"ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft maxsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov xujjati nusxasi taqdim etilganda sotiladi.

3.2. Neft maxsulotlari "**Iste'molchi**"ga uning so'roviga asosan "**Ta'minotchi**"ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda yetkazib berilishi mumkin. Neft maxsulotlarini shuningdek "**Iste'molchi**" tomonidan barcha yong'in va texnika xavfsizlik talablariga rivoja qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan xolda o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday xolatda tashish xaratatlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

3.3. Neft maxsulotlari omboriga neft masulotini tashuvchi avtomobil tsisternalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks xolda avtotransport vositalari ombor xududiga

kiritilmaydi va ularga neft maxsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtovtranspor vositalari bo'sh ketgan hollarda "Ta'minotchi" javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft maxsulotlari quyilgan avtotsisternalar (Iste'molchi"ning avtovtransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) "Iste'molchi"ning talabiga binoan "Ta'minotchi"ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik xujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

4. NEFT MAXSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft maxsulotlari miqdor bo'yicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va xalq iste'moli mollarini miqdor jihatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va xalq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yuriqnomalar xamda boshqa me'yoriy xujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. "Iste'molchi"ning vakili neft maxsulotlarini olayotgan vaqtida maxsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft maxsulotlarini sotilganligi to'g'risidagi tegishli xujjatlar "Ta'minotchi"ning omborida yoki unga qarashli filiallarda rasmiylashtiriladi va ularni "Iste'molchi" tomonidan bunga vakolat berilgan ishonech nomas asosida vakili imzolaydi va neft maxsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik xuquqi tasodifiy nobud bo'lishi, neft maxsulotlariga ziyon yetish xavfi "Ta'minotchi" ombori yoki AYOQSH xududidan chiqqan vaqtidan boshlab "Iste'molchi"ga o'tadi.

5. NEFT MAXSULOTLARINING SIFATI

5.1. "Ta'minotchi" "Iste'molchi"ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft maxsulotlarini sotishni kafolatlaydi. Sotilayotgan neft maxsulotlarining sifati 1510- va 2517-sun Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi xamda bu neft maxsulotlarini avtovtransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft maxsulotlarini olishda "Iste'molchi" ularning sifatini, shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuniga binoan javobgar bo'ladiilar.

6.2. "Ta'minotchi" neft maxsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun xar bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida yetkazilmagan neft maxsulotlari summasining 0,1 foizi, lekin 10 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

6.3. "Ta'minotchi" neft maxsulotlari sifatini o'z xisobidan tiklab berish bilan bir qatorda "Iste'molchi"ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'limgan neft maxsuloti qiyomatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. "Iste'molchi" belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft maxsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun "Ta'minotchi"ga olinmagan maxsulot umumiyoq qiyomatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan maxsulot uchun maxsulotning to'liq qiyomatini undirish xuquqiga ega.

6.5. "Iste'molchi" o'zining xududiga olib keligan neft maxsulotlarini qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik xavfsizligi talab va me'yorlariga to'liq amal qilinishiga javobgardir.

6.6. "Iste'molchi" yetkazib berilgan neft maxsulotlarini saqlashning texnikaviy shartsharoitlari va xavfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

6.7. Tomonlar xamda ularning vakillari mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun xujjatlarining talablariga zid keladigan xar qanday xarakatlarni amalga oshirmaydilar, tomonlar ushbu xarakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'riliishiga kafolat beradi.

7. FORS-MAJOR XOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo`yicha o`z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major xolatlar, ya`ni yengib bo`lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo`lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg`oqchilik, suv toshqini, yong`in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) sabab bo`lganligini isbotlasa, javobgar bo`lmaydi.

8. BOSHQA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan xar qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o`rtasida o`zar o muzokara yo`li bilan xal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iqtisodiy sudlar orqali xal etiladi.

8.2. Shartnomaga kiritiladigan xar qanday o`zgartirish va qo`shimchalar yozma ravishda bo`lib, xar ikkala tomon imzolagandan keyingina xaqiqiy xisoblanadi.

8.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xuquqiy kuchga ega.

8.4. Shartnoma tomonlar o`rtasida imzolangan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal kiladi.

9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

"TA'MINOTCHI"

“Farg`ona neft bazasi” MCHJ

Manzili: Farg`ona shahar

Tegirmон ko`chasi 141-uy.

SKB Yashnobod filiali

x/r: 22604000800215485702

23210000300215485333

MFO: 00432

INN: 201104250



Raxbar:

M.Ý

A.Abduganiev

"ISTE'MOLCHI"

FARG`ONA SHAHAR

OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI

Fargona shahar .Mustaqillik kuchasi 3 uy

SHxr :100022860304017065100110001

INN 200145479.OKONX 90290

Moliya Vazirligi G`aznachiligi Farg`ona shahar

G`aznachilik bo`linmasi

x\r 23402000300100001010 Markaziy Bank

Toshkent sh.XKKM MFO 00014.STIR 201122919



Raxbar

M.Y

J.Odilov

2022 yil "17" 01 № 04/51 -sonli shartnomaga Zilova

"BUYURTMACHI"

FARFONA SHAXAR OBODONLASHTIRISH BOSHKARMASI "Farg'ona neft bazasi" MCHJ

SPETSIFIKATSIYA

No	Neft maxsulotlari nomi	O'lchov birligi	1 tonnasi narxi	Migdori, tonna	Umumiy summasi
1	Avtobenzin AI-80 (BNPZ)	tn	10 420 784.30		
2	Dizel yonilgisi EKO	tn	11 810 027		
3	Dizel yonilgisi	tn	11 592 841.47	8.62	99 930 293.47
	Jami:	X	X	X	

Umumiy jami: 99 930 293.47 (Tukson tukkiz million tukkiz yuz o'ttiz ming ikki yuz tuksun uch sum 47 t) sum.

Mazkur spetsifikatsiya ikki nusxada tuzildi.

"TA'MINOTCHI"

A.A.Abduganiev



"BUYURTMACHI"

J.Odilov



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

NoYE7376673037


1. Hujjatning turi: shartnomma (02/51-sonli)
2. Hujjataning nomi: "Neft mahsulotlarini sotish haqida"
3. Hujjat ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Farg'on'a shahar Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2021 yil 17-ynvar kuni ishlab chiqilgan va "E-Huquqshunos" elektron tizimiga joylashtirilgan.
4. Hujjat bo'yicha taklif: Hujjat amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

X U L O S A

Hujjat amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



Z.Mirsoliyev

17.01.2022 yil